

2m

“Tasdiqlayman”



“Norin-Qoradaryo”
irrigatsiya tizimlari havza
boshqarmasi boshlig‘i.

X.Xamidov

2022 y.

Andijon viloyati Asaka tumanidagi “Asaka-Adir” suv omborining texnik xolatini yaxshilash, ularning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlash” ob’ekti bo’ycha

ishchi loyihani ishlab chiqish uchun

LOYIHA TOPSHIRIQNOMASI

№	Asosiy ma’lumotlar nomi va talablar	Asosiy ma’lumotlar tarkibi va talablar
1	Buyurtmachi	“Norin-Qoradaryo” ITHB huzuridagi Shaxrixonsoy irrigatsiya tizimi boshqarmasi”. Manzili: Asaka tumani Imom Buxoriy ko’chasi 33 uy Tel/faks: 232-33-36 SHXR2 1000 2186 0032 2470 4240 2170 002 INN: 305 916 144 OKONX: 22100 Bank: O’zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G’aznachiligi. G’azna x/r: 2340 2000 3001 0000 1010 MB BBXKKM Toshkent shahar, MFO 00014, INN:201122919
2	Loyihalashtirish uchun asos	Andijon viloyati xokimi Farmoyishi
3	Qurilish turi	Rekonstruksiya qilish
4	Moliyalashtirish manbai	Mahalliy budjet
5	Taxminiy qiymati	1 200,0 mln.so’m
6	Loyiha tashkilotining nomi	Tanlov asosida
7	Pudrat tashkilotining nomi	Tanlov (tender) asosida

8	Obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, shu jumladan ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarish dasturi, shu jumladan turar-joy binolari yoki jamoat binolari, ularning maqsadi (qavatlar soni va kvartiralarining soni, sig'imi)	"Asaka-Adir" suv ombori 1971 qurilishi boshlangan. 1981 yil ishga tushirilgan. Sug'oriladigan maydon 988.0 ga. Suv yig'ish hajmi 3,5 mln.m3, foydali hajmi 3,1 mln.m3 o'lik hajmi 0,4mln.m3, maydoni 20.0ga, uzunligi 2, 5 km, chuqurligi 24-26 metrni tashkil qiladi. Suv omborda suv chiqarish inshooti sarfi 10,0 m3/sek, 119.5 m uzunlikdagi yopiq gorizantal drenaj tarmog'i hamda uzunligi 485 m, eni 20 metr bo'lgan inspektorlik yo'li mavjud.
9	Turar-joy binolariga qurilgan kommunal xizmatlarning maqsadi va turlari, ularning hajmi, binolarning tarkibi va maydoni, qurilish hajmi	Talab qilinmaydi
10	Mahsulotlarning raqobatbardoshligi va ekologik parametrlari sifatiga qo'yiladigan talablar. Texnologiyaga, korxonalar rejimiga qo'yiladigan talablar	Ekologik xavfsiz mahsulotlardan foydalanish amaldagi me'yoriy hujjatlar (O'zRes V.M. №95-son qarori 18.02.2020y) ga muvofiq
11	Arxitektura va qurilish, ishni rejalashtirish va tuzilmaviy yechimlarga, blokirovka sharoitlariga, binoning oxirigacha bo'lgan talablar.	Talab qilinmaydi
12	Obodonlashtirish va kichik me'moriy shakllarga bo'lgan talablar.	Rekonstruksiya ishlari yakunlangandan so'ng obodonlashtirish ishlarini nazarda tutish
13	Yuk ko'taruvchi va o'rab turuvchi konstruksilar uchun strukturaviy yechimlar va materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar.	Amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq
14	Muhandislik va texnologik uskunalar qo'yiladigan asosiy talablar, texnologik asbob-uskunalarining ro'yxati va yetkazib beruvchi kompaniyaning nomi	Texnologik jarayonlar asbob-uskunalar muxandislik va kommunikatsiya tarmoqlarini dala qidiruv ishlari, geologik izlanishlar va muhandislik yechimlar natijalari asosida aniqlanadi va loyiha ishlab chiqarish davrida inobatga olinadi
15	Avtomatlashtirish, jarayonlarni boshqarish va dispatcherlik bo'yicha asosiy talablar	Suv ombori xolatini avtomatik nazorat qilish, masofadan turib xavfdan ogohlantirish tizimini ishga tushirish talab etilmaydi
16	Xavfsizlik va mehnat gigiyenasi bo'yicha talablar	Xavfsizlik va mehnat gigiyenasi bo'yicha talablar nazarda tutish (tegishli normativ hujjatlarga asosan)
17	Buyurtmachi tomonidan beriladigan dastlabki ma'lumotlarning tarkibi	SHNK1.03.01-16 1-ilovasiga binoan buyurtmachining dastlabki loyiha oldi hujjatlari to'liq taqdim etiladi
18	Loyihaning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha talablar	Amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq atrof muhit uchun ishchi loyihagini ishlab chiqish
19	Smeta hujjatlarini tayyorlash usuliga qo'yiladigan talablar	Obyektning narxi mavjud narxlarda resurs usulida aniqlanadi
20	Loyihalashtirilayotgan obyektning tarkibi	Suv ombori to'g'onining inspektorlik yo'lini rekonstruksiya qilish, loyihaviy o'lchamlari asosida qayta tiklash, Suv omborining drenaj tarmog'ini to'liq tiklash hamda filtratsiya suvlari va ularning tarkibini nazorat qiluvchi uskunalar bilan jihozlash, Suv ombori to'g'onining 5-stvoriga loyiha talabi asosida p'ezometr o'rnatish.
21	Energiya samaradorligini ta'minlash bo'yicha loyihaviy yechimlarga talab.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 14 iyuldagi PQ 628-sonli qaroriga asosan loyihalash jarayonida energiya tejovchi uskuna va

		texnologiyalardan foydalanish
22	Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha muhandislik-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish talablari	Andijon viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasining texnik shartiga muvofiq
23	Sanoat xavfsizligi bo'yicha muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar	Rekonstruksiya ishlari yakunlangandan so'ng obodonlashtirish ishlarini nazarda tutish
24	Nogironlar va imkoniyati cheklangan odamlarning yashash sharoitlarini ta'minlashga qo'yiladigan talablar	SHNK2.07.02-07 binoan "Nogironlar va imkoniyati cheklangan odamlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda yashash muhitini loyihalash"
25	Yong'in xavfsizligi bo'limining ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar	Amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq
26	Prezentatsiya materiallarini tayyorlashga bo'lgan talablar	Talab qilinadi
27	Obyektning ishlash rejimi	Yil davomida
28	Korxonada infratuzilmasi ishlab chiqarish kooperatsiyasi.	Talab qilinmaydi
29	Tashqi transport aloqalari va yetkazib berish sxemasi	Loyihalash davomida talab qilinadigan materialning olib kelish yoki chiqarish masofasining joylashuv joyini aniqlash va transportning borib-kelish uchun sxematik xaritasini tuzish
30	Qurilishni foydalanishga topshirishning vaqti (yil)	2022-yil
31	Loyihalashda muhandislik tadqiqotlarini, va ilmiy-tadqiqotlar dala-qidiruv ishlarida olib borishga qo'yiladigan talablar	Obyektida muhandislik tadqiqotlarni piketlarini 100 m dan hisoblash lozim va qo'zg'almas nuqtalar (reper)ni har 3 kmdan yangidan o'rnatishni nazarda tutish
32	Maxsus qurilish sharoitlari	Seysmik 8-9 balli xudud
33	Qurilish obyektining murakkablik toifasi	Obyektning murakkablik darajasi - IV
34	Ekspluatatsiya tashkiloti	"Norin-Qoradaryo" ITHB huzuridagi Shaxrixonsoy irrigatsiya tizimi boshqarmasi".
35	Qo'shimcha talablar	Loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachiga SHNK1.03.01-16 2.9-bandiga muvofiq 3-nusxada va elektron 1 nusxada taqdim qilish
36	Qurilishni tashkillashtirish loyihasini ishlab chiqish (QTL)	Talab etiladi (SHNK 3.01.01-03)

Buyurtmachi:

Shaxrixonsoy irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig'i:

Kelishildi:

"Davsvuxo'jaliknazorat" inspeksiyasi Andijon viloyati inspektori:



D.Odilov

A.Karimov

Андижон вилояти Асака туманидаги “Асака-адир” сув омборини техник ҳолатини яхшилаш, уларнинг хавфсиз ва ишончли ишлашини таъминлаш объектига

АННОТАЦИЯ

“Асака-адир” сув омбори 1971 йил қурилиши бошланиб, 1981 йилда қуриб фойдаланишга топширилган. Сув йиғиш ҳажми 3,5 млн.м³ бўлиб шундан фойдали ҳажми 3,1 млн.м³ ўлик ҳажми 0,4 млн.м³, майдони 20 га, узунлиги 2,5 км, чуқурлиги 24-26 метрни ташкил қилади.

Сув омборнинг сув чиқариш қобилияти 10,0 м³/сек.

Сув омборда жами 2 дона гидротехник иншоотлар мавжуд.

Сув омбор “Асака-адир” насос станция орқали сув билан таъминланади.

Сув омборга боғланган суғориладиган экин майдонлари 988,0 гектарни ташкил этади.

Сув омбор “Норин-Қорадарё” ИТХБ хузуридаги Шахрихонсой ирригация тизимлари бошқармаси ҳисобида.

Сув омбор дамбасининг узунлиги 485 м эни 20,0 м бўлиб, дамба тури зичланган майда қум зарраларидан иборат.

Сув омбордан чиқадиган фильтрация сувларини чиқариб юбориш учун дамбада 190,0 м узунликдаги ёпик-ётик дренаж тармоғи мавжуд.

Бугунги кунда дамбадаги инспекторлик йўли кўп йиллар мобайнида эксплуатация қилиш давомида яроқсиз ҳолга келиб қолган.

Сув омборида фильтрацияни ўлчаб турувчи пьезометрлари ишчи ҳолатда эмас.

Сув омбор Асака туманидаги 988,0 гектар ер майдонга, шу ҳудудда истиқомат қилувчи хонадонларга, давлат ва подавлат ташкилот биноларига фавқулотда ҳолат содир бўлганда жиддий зарар етказиши мумкин.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, сув омборнинг дамбасини мустаҳкамлаш, лойиҳа талаблари асосида тиклаш, 485 м узунликдаги инспекторлик йўлини реконструкция қилиш, мавжуд дренажларни ва назорат ўлчов асбоблари (пьезометрлар ва х.з.)ни қайта қуриш ҳамда шулар билан бирга гидротехник иншоотларига автоматлаштирилган тизимни жорий этиш зарур.

Шахрихонсой ИТБ бошлиғи:


Д.Одилов

Шахрихонсой ИТБ мутахассиси:

Б.Жумабоев

“Асака-адир” сув омбори бошлиғи:

А.Турғунов



Андижон вилояти Асака туманидаги “Асака-адир” сув омбори техник
ҳолатини яхшилаш, уларнинг хавфсиз ва ишончли ишлашини
таъминлаш бўйича нуксонли

ДАЛОЛАТНОМА

“ _____ ” _____ 2022 йил

Асака тумани

Биз ким куйида имзо чекувчилар Шахрихонсой ИТБ бошлиқ ўринбосари Ш.Қўшақов, бош муҳандис-гидротехник Б.Жумабобоев, “Асака-адир” сув омбори бошлиғи А.Турғуновлар сув омборини кўздан кечирганда куйидаги камчиликлар аниқланди:

“Асака-адир” сув омбори 1971 йил қурилиши бошланиб 1981 йилда қуриб фойдаланишга топширилган. Сув йиғиш ҳажми 3,5 млн.м³ бўлиб шундан фойдали ҳажми 3,1 млн.м³ ўлик ҳажми 0,4 млн.м³, майдони 20 га, узунлиги 2,5 км, чуқурлиги 24-26 метрни ташкил қилади.

Сув омборнинг сув чиқариш қобилияти 10,0 м³/сек.

Сув омборда жами 2 дона гидротехник иншоотлар мавжуд.

Сув омбор “Асака-адир” насос станция орқали сув билан таъминланади.

Сув омборга боғланган суғориладиган экин майдонлари 988.0 гектарни ташкил этади.

Сув омбор “Норин-Қорадарё” ИТХБ ҳузуридаги Шахрихонсой ирригация тизимлари бошқармаси ҳисобида. Сув омбор дамбасининг узунлиги 485,0 м эни 20,0 м бўлиб, дамба тури зичланган майда қум зарраларидан иборат.

Т/р	Нуксонли иш турлари	Нуксонларни бартараф этиш учун бажариладиган иш турлари	Изоҳ
1	2	3	4
1	Сув омборининг устки юқори қисми лойиҳавий параметрларини йўқотган.	Сув омборнинг устки юқори қисмини мустаҳкамлаш, лойиҳа талаблари асосида тиклаш, 485 м узунликдаги инспекторлик йўлини реконструкция қилиш.	Иш ҳажмлари лойлаша давомида аниқланади.
2	Назорат ўлчов асбоблари ишчи ҳолатини йўқотган, кўпчилиги ўз ўрнида эмас.	Мавжуд дренажларни ва назорат ўлчов асбоблари қайта қуриш ҳамда шулар билан бирга сув олувчи иншоотнинг дарвозаларни автоматлаштирилган тизимини жорий этиш зарур.	


Т/р	Нуксонли иш турлари	Нуксонларни бартараф этиш учун бажариладиган иш турлари
1	2	3
3	Сув омборининг дренаж тармоғида 4 дона кузатув кудуги мавжуд бўлиб, бугунги кунда лойқадан тўлган, ишчи ҳолатини йўқотган ҳамда фильтрация сувлари ва уларнинг таркибини назорат қилувчи ускуналар билан жихозламаган.	Сув омборининг дренаж тармоғини тўлиқ тиклаш ҳамда фильтрация сувлари ва уларнинг таркибини назорат қилувчи ускуналар билан жихозлаш.
4	Сув омбори тўғонида пьезометрлар ўрнатилмаган. Тўғондан ўтиб турувчи филтёр сувларини аниқлашнинг имкони мавжуд эмас.	Сув омбори тўғонининг 5-створиға лойиха талаби асосида пьезометр ўрнатиш.

Изоҳ: Сув омбори техник ҳолатини яхшилаш, уларнинг хавфсиз ва исончли ишлашини таъминлаш учун маҳаллий бюджетдан 1 200.0 млн сум ажратилган.

Юқоридаги ҳолатни ўрганиш тўғри деб имзо чекувчилар:

 Ш.Кўшақов.

 Б.Жумабоев.

 А.Тургунов.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Андижон вилояти

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy. Tel/Faks (374) 223-57-82, E-mail:
ekspert-2312@mail.ru. www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: MASHRAPOV AXRORBEB AKRAMOVICH

Sana: 20-10-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 66186

Obyekt nomi «Andijon viloyati Asaka tumanidagi Asaka-adir suv omborini texnik xolatini yaxshilash, uning xavfsiz va ishonchli ishlashini joriy ta'mirlash»

Buyurtmachi - "SHAHRIXONSOY IRRIGATSIYA TIZIMI BOSHQARMASI"

Bosh loyihachi - "Сувлойиха" ДУК

Litsenziya Ozbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi AL-000694-sonli,
30.04.2020y.da olingan

Moliyalashtirish manbai - byudjet mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi - tender savdolari orkali

Qurilish turi joriy ta'mirlash

Murojaat raqami: № 60982

1. Loyihalash uchun asos

O'zbekiston Respublikasi Suv Xo'jaligi Vazirligi Norin-Qoradaryo Irrigatsiya Tizimlari Havza Boshqarmasi hi zuridagi Shaxrixonsoy Irrigatsiya tizimi Boshqarmasining 2022 yil 02. 08 dagi №94 sonli buyrug`i.

2022 dagi O'zbekiston Norin-Qoradaryo Irrigatsiya Tizimlari Havza Boshqarmasi boshlig`i tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirignomasi.

Shaxrixonsoy ITB boshlig'i tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan nuqson dalolatnomalari.

Shaxrixonsoy ITB boshlig'i tomonidan koyihaga berilgan annotatsiya.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichidagi to'liq loyixa xujjatlari

Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Loyixaning maqsadi. Asaka Adir suv ombori Asaka tumanida joylashgan bo'lib, hajmi 3,5mln.m3, bundan 3,1 mln.m3 foydali hajmni tashkil qiladi. Suv ta'minoti Shaxrixonsoy orqali. Loyixa suv omborining texnik xolatini yaxshilash, xavfsiz va ishonchli ishlashi maqsadida amalga oshirilgan.

Loyixaviy yechimlar.

Loyixa quyidagi ish turlarini o'z ichiga oladi.

- to'g'onning yuqori qismini va nazorat -o'lchov asboblarini qayta tiklash;
- suv omborining suv qochirish tarmog'ini va suvni filtrlash jihozlarini to'liq tiklash va uni nazorat qilish;
- loyixa talablariga asosan suv omborining 5-bo'limida 17ta pyezometrlarni o'rnatish.

To'g'onning yuqori qismini va nazorat -o'lchov asboblarini qayta tiklash. To'g'onning yuqori qismining kengligi - 6,5m, yo'lining uzunligi - 485m. Yo'lining yemirilgan qismini qayta qurib damba tuprog'ini zichlab, yuqori qismiga qum shag'al aralashmasi yotqizilishi ko'zda tutilgan.

Suv omborining suv qochirish tarmog'ini va suvni filtrlash jihozlarini to'liq tiklash va uni nazorat qilish. Suv omborining past qismida 174ta turar joy va noturar binlar joylashgan. Suvning filtrasiyasini nazorat qilish uchun 4dona nazorat qudug'i mavjud bo'lgan. Qoniqarsiz xolatda. Ularni demontaj qilib 6 dona yangi nazorat qudug'i qurish loyixalangan.

Suv ombori to'g'onida monitoring ishlarini olib borish uchun nazorat -o'lchov apparatlarini o'rnatish. Avval to'g'onning filtrasiya rejimini kuzatish olib borilmagani sababli nazorat -o'lchov apparatlarini o'rnatilmagan edi. Shu sababli loyixada monitoring ishlarini olib borish uchun nazorat -o'lchov apparatlarini o'rnatish ko'zda tutilgan. Buning uchun suv omborining 5-bo'limida 17ta pyezometrlarni o'rnatish rejalashtirilgan

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

2022 dagi O'zbekiston Norin-Qoradaryo Irrigatsiya Tizimlari Havza Boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan loyixalash topshirig'nomasi

6. Ekspertiza natijalari.

Loyixani kurib chikish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari t o'grilanib qayta t o'ldirildi.

Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

SHNK 1.03.06-13da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019 yil 19 avgustdagi 396- buyrugi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 9 sentyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan «Loyixa-tadqiqat ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'grisidagi» Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Taqdim etilgan 15% QQS bilan hisoblangan umumiy miqdori 1 258 217,166 ming so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so'ng 82 334,335 ming so'm materiallar narhlari va jihozlar hisobiga kamaygan.

7. Xulosalar.

Ishchi loyixa: « Andijon viloyati Asaka tumanidagi Asaka-adir suv omborini texnik xolatini yaxshilash, uning xavfsiz va ishonchli ishlashini joriy ta'mirlash » ob'ektini quyidagi texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra keyingi kelishuv va tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etiladi:

Suv omborining o'lik suv hajmi	- 3,1 mln.m3;
Maydoni	- 20,0 ga;
Dambaning uzunligi	- 485 m;
Suv omborining chuqurligi	- 24,0 - 26,0 m;
Me'yoriy mexnat sarfi	- 658,096 kishi/kun.
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlangich) miqdori	
15% QQS bilan	- 1 175 882,830 ming so`m.
Shu jumladan buyurtmachining boshqa xarajatlari	- 52 631,850 ming so`m.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261 sonli karori va SHNK4.01.16-09 me'rlariga muvofiq tanlov savdolarini otkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlangich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi

Bosh mutaxassis: Xaldarov Jur'at Alimdjanovich